



THE ROLE OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN INCLUSIVE ECONOMIC DEVELOPMENT: A SOCIO-PHILOSOPHICAL APPROACH

Umidakhon Sodiqjonovna Maksumova

Doctor of Philosophy (PhD), Senior Lecturer

Fergana State University

Science ID: MFR-0525-0082

E-mail: u.maksumova81_fdu@mail.ru

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: women's entrepreneurship; inclusive economy; gender equality; human capital; economic thinking; social justice; sustainable development.

Received: 26.07.26

Accepted: 27.07.26

Published: 28.07.26

Abstract: This article examines the role of women's entrepreneurship in promoting inclusive economic development from a socio-philosophical perspective. The study explores the relationship between gender equality, human capital, economic thinking, and social inclusion. Women's entrepreneurship is interpreted not merely as a form of economic activity but as a social institution that facilitates human development, social justice, and sustainable development. The research employs socio-philosophical analysis, systems approach, comparative analysis, and the axiological method. The findings demonstrate that strengthening women's entrepreneurship contributes not only to economic growth but also to social cohesion, equal opportunities, and inclusive development.

AYOLLAR TADBIRKORLIGINING INKLYUZIV IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNINI IJTIMOIIY-FALSAFIY YONDASHUV

Umidaxon Sodiqjonovna Maqsumova

PhD, katta o'qituvchi

Farg'ona davlat universiteti

Ilmiy identifikatsiya raqami: MFR-0525-0082

E-mail: u.maksumova81_fdu@mail.ru

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: ayollar tadbirkorligi; inklyuziv iqtisodiyot; gender tengligi; inson kapitali; iqtisodiy tafakkur; ijtimoiy adolat; barqaror rivojlanish; ijtimoiy falsafa.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ayollar tadbirkorligining inklyuziv iqtisodiy rivojlanishdagi oʻrni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda gender tengligi, inson kapitali, iqtisodiy tafakkur va ijtimoiy inklyuziya oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yoritilgan. Ayollar tadbirkorligi iqtisodiy oʻsishni jadallashtiruvchi omil sifatida emas, balki inson salohiyatini roʻyobga chiqarish, ijtimoiy adolatni qaror toptirish hamda barqaror taraqqiyotni taʼminlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida baholangan. Tadqiqotda ijtimoiy-falsafiy tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy-komparativ va aksiologik metodlardan foydalanilgan. Natijalar ayollar tadbirkorligini qoʻllab-quvvatlash iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda jamiyatda ijtimoiy birdamlik, gender tengligi va inklyuziv rivojlanishni mustahkamlashga xizmat qilishini koʻrsatadi.

РОЛЬ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ИНКЛЮЗИВНОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ ПОДХОД

Умидахон Содикжоновна Максумова

Доктор философии (PhD), старший преподаватель

Ферганский государственный университет

Научный идентификационный номер: MFR-0525-0082

E-mail: u.maksumova81_fdu@mail.ru

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: женское предпринимательство; экономика; гендерное равенство; человеческий капитал; экономическое мышление; социальная справедливость; устойчивое развитие.

Аннотация: В статье с социально-философских позиций исследуется роль женского предпринимательства в обеспечении инклюзивного экономического развития. Рассматривается взаимосвязь гендерного равенства, человеческого капитала, экономического мышления и социальной инклюзии. Женское предпринимательство интерпретируется как важный социальный институт, способствующий реализации человеческого потенциала, укреплению социальной справедливости и устойчивого развития. Методологическую основу исследования составили социально-философский анализ, системный,

сравнительно-компаративный и аксиологический подходы. Полученные результаты свидетельствуют о том, что расширение предпринимательской активности женщин способствует не только экономическому росту, но и формированию инклюзивной модели общественного развития.

Kirish. So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar iqtisodiy rivojlanish mazmunini yangicha talqin qilish zaruratini yuzaga keltirdi. Agar avval iqtisodiy taraqqiyot asosan yalpi ichki mahsulotning o‘shishi yoki investitsiyalar hajmi bilan baholangan bo‘lsa, bugungi kunda uning sifati inson kapitalining rivojlanishi, teng iqtisodiy imkoniyatlarning yaratilishi, ijtimoiy adolatning ta‘minlanishi hamda jamiyatning barcha qatlamlarini iqtisodiy jarayonlarga jalb etish darajasi bilan belgilanmoqda. Shu jihatdan inklyuziv iqtisodiy rivojlanish zamonaviy iqtisodiy siyosat va ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Inklyuziv iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy o‘shish natijalaridan jamiyatning barcha a‘zolari teng manfaatdor bo‘lishini nazarda tutadi. Mazkur yondashuv nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ijtimoiy barqarorlikni, inson qadr-qimmatini e‘tirof etish va teng imkoniyatlar yaratishni ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli ayollar tadbirkorligini rivojlantirish masalasi iqtisodiy siyosatning alohida yo‘nalishi bo‘lish bilan birga, ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning ham dolzarb obyektiga aylanmoqda.

Xalqaro tashkilotlarning tahlillari ayollar iqtisodiy faolligining oshishi bandlikni kengaytirish, kambag‘allikni qisqartirish, oilalar farovonligini mustahkamlash hamda inson kapitalini rivojlantirishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Xususan, World Bank, UN Women, OECD va ILO hisobotlarida ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash barqaror iqtisodiy o‘shishning muhim omillaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Biroq mazkur tadqiqotlarning aksariyati iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ustuvor ahamiyat qaratib, ayollar tadbirkorligining qadriyatlar tizimi, iqtisodiy tafakkur va ijtimoiy transformatsiyalarga ta‘sirini yetarli darajada yoritmaydi.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarda xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni tadbirkorlikka keng jalb etish, oilaviy biznesni rivojlantirish hamda gender tengligini ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan. Imtiyozli kreditlar, kasb-hunarga o‘qitish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va raqamli iqtisodiyot imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar ayollar iqtisodiy faolligini oshirish uchun qulay institutsional muhitni shakllantirmoqda. Shu bilan birga, ushbu

jarayonlarni faqat iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan emas, balki ijtimoiy adolat, inson kapitali va ijtimoiy inklyuziya tamoyillari asosida baholash zarurati tobora ortib bormoqda.

Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan tadbirkorlik shaxsning iqtisodiy faoliyati bilan cheklanmay, uning ijtimoiy mas'uliyati, qadriyatlari va jamiyat taraqqiyotidagi ishtirokini ham ifodalaydi. Ayollar tadbirkorligi esa iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash bilan bir qatorda, fuqarolik faolligini kuchaytirish, ijtimoiy kapitalni rivojlantirish va gender tengligini qaror toptirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli uni ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida tadqiq etish inklyuziv iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslarini boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi – ayollar tadbirkorligining inklyuziv iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish, uning inson kapitali, gender tengligi va iqtisodiy tafakkur bilan o'zaro bog'liqligini ochib berish hamda zamonaviy rivojlanish sharoitida uning konseptual asoslarini ishlab chiqish.

Adabiyotlar sharhi. Ayollar tadbirkorligi masalasi so'nggi o'n yilliklarda iqtisodiyot, sotsiologiya, gender tadqiqotlari, siyosatshunoslik va ijtimoiy falsafa fanlari kesishgan nuqtada shakllangan kompleks ilmiy yo'nalish sifatida rivojlanmoqda. Dastlabki tadqiqotlarda ayollar tadbirkorligi asosan iqtisodiy samaradorlik, bandlikni oshirish va oilaviy daromadlarni ko'paytirish vositasi sifatida talqin etilgan bo'lsa, zamonaviy ilmiy qarashlarda u inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy inklyuziyani ta'minlash, gender tengligini mustahkamlash hamda barqaror taraqqiyotga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy institut sifatida baholanmoqda [1].

Klassik iqtisodiy nazariyada tadbirkorlik iqtisodiy erkinlik va shaxs tashabbusining asosiy ko'rinishlaridan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, Adam Smith iqtisodiy faoliyatning rivojlanishi shaxs manfaatlari va erkin bozor munosabatlari bilan uzviy bog'liqligini asoslab bergan [2]. Biroq zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot sharoitida iqtisodiy o'sishning barqarorligi faqat bozor mexanizmlariga emas, balki teng imkoniyatlar, inson kapitali va samarali ijtimoiy institutlarning rivojlanishiga ham bog'liq ekanligi ilmiy jihatdan isbotlanmoqda.

Mazkur yondashuvning nazariy asoslari Amartya Sen tomonidan ishlab chiqilgan Capabilities Approach ("Imkoniyatlar yondashuvi") konsepsiyasida o'z ifodasini topgan. Olim iqtisodiy taraqqiyotni daromadlar hajmi bilan emas, balki insonning o'z salohiyatini amalga oshirish imkoniyatlari bilan baholash zarurligini ta'kidlaydi [3]. Ushbu nazariyaga ko'ra, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash bilan bir qatorda ularning ta'lim olish, qaror qabul qilish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Martha Nussbaum ushbu nazariyani yanada rivojlantirib, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish adolatli jamiyatning asosiy mezonlaridan biri ekanligini asoslaydi [4]. Uning fikricha, ayollar iqtisodiy faolligining kengayishi inson huquqlari, gender tengligi va ijtimoiy adolat

tamoyillarining amaliy ifodasidir. Mazkur yondashuv ayollar tadbirkorligini iqtisodiy kategoriya bilan bir qatorda ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Zamonaviy ijtimoiy falsafada iqtisodiy faoliyatning transformatsiyasi Anthony Giddensning reflektiv modernizatsiya nazariyasi orqali izohlanadi. Giddensning ta'kidlashicha, globallashuv sharoitida iqtisodiy faoliyat insonning o'zini anglash, ijtimoiy identifikatsiyasi va mustaqil hayot strategiyasini shakllantirishning muhim omiliga aylanadi [5]. Shu nuqtai nazardan ayollar tadbirkorligi iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash bilan birga, shaxsning fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyatini ham kuchaytiradi.

Raqamli transformatsiyalar sharoitida Manuel Castells tomonidan ishlab chiqilgan tarmoq jamiyati nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Olim axborot-kommunikatsiya texnologiyalari iqtisodiy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini demokratlashtirishini hamda ayollar uchun yangi tadbirkorlik shakllarini yuzaga keltirishini asoslaydi [6]. Elektron tijorat, masofaviy xizmatlar va raqamli platformalar ayollar iqtisodiy faolligini kengaytiruvchi yangi institutsional muhitni shakllantirmoqda.

So'nggi yillarda xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilinayotgan hisobotlarda ham ayollar tadbirkorligi inklyuziv iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida baholanmoqda. World Bankning Women, Business and the Law 2024 hisobotida ayollar uchun huquqiy va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish yalpi iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim sharti ekanligi qayd etilgan [7]. OECDning The Missing Entrepreneurs tadqiqotida esa ayollar tadbirkorligini rivojlantirish iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish va mehnat bozorining inklyuzivligini oshirish vositasi sifatida e'tirof etiladi [8]. Shuningdek, UN Women va UNDP hisobotlari ayollar iqtisodiy faolligining ortishi Barqaror rivojlanish maqsadlarining (SDGs) amalga oshirilishiga bevosita xizmat qilishini ta'kidlaydi [9].

O'zbekiston olimlari tomonidan ham ayollar tadbirkorligi, oilaviy biznes, gender siyosati va inson kapitalini rivojlantirish masalalari bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda davlat tomonidan yaratilayotgan institutsional sharoitlar, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish yo'llari yoritilgan. Biroq mavjud ilmiy ishlarda ayollar tadbirkorligini ijtimoiy-falsafiy kategoriya, iqtisodiy tafakkur transformatsiyasi va inklyuziv rivojlanish paradigmasi bilan bog'liq holda kompleks tahlil qilish yetarli darajada uchramaydi.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayollar tadbirkorligi bo'yicha iqtisodiy, sotsiologik va gender tadqiqotlari keng rivojlangan bo'lsa-da, uning inklyuziv iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy-falsafiy asoslari, qadriyatlar tizimiga ta'siri hamda iqtisodiy tafakkur

evolyutsiyasidagi oʻrni yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy boʻshliqni toʻldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ayollar tadbirkorligining inklyuziv iqtisodiy rivojlanishdagi oʻrni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilishga qaratilgan boʻlib, unda fanlararo (interdisciplinary) metodologik yondashuv qoʻllanildi. Tadqiqotning nazariy asosini A. Senning Capabilities Approach konsepsiyasi, M. Nussbaumning inson salohiyatini rivojlantirish nazariyasi, A. Giddensning refleksiv modernizatsiya nazariyasi, M. Castellsning tarmoq jamiyati konsepsiyasi hamda inklyuziv iqtisodiyot va barqaror rivojlanish paradigmalari tashkil etdi [3–6].

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- ijtimoiy-falsafiy tahlil – ayollar tadbirkorligining jamiyat taraqqiyotidagi mazmuni va funksiyalarini ochib berish uchun;
- tizimli yondashuv – iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni aniqlash uchun;
- qiyosiy-komparativ tahlil – Oʻzbekiston tajribasini xalqaro amaliyot bilan taqqoslash uchun;
- aksiologik yondashuv – tadbirkorlikning qadriyatlar tizimidagi oʻrni baholash uchun;
- kontent-tahlil – xalqaro tashkilotlar hisobotlari, normativ-huquqiy hujjatlar va zamonaviy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish uchun.

Empirik asos sifatida World Bank, OECD, UN Women, UNDP, ILO, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, Scopus va Web of Science bazalarida indekslangan ilmiy maqolalar tahlil qilindi. Statistik va nazariy ma'lumotlarning oʻzaro integratsiyasi ayollar tadbirkorligining iqtisodiy hamda ijtimoiy-falsafiy jihatlarini kompleks baholash imkonini berdi.

Mazkur metodologik yondashuvning oʻziga xosligi shundaki, ayollar tadbirkorligi iqtisodiy faoliyat turi sifatida emas, balki gender tengligi, inson kapitali, ijtimoiy kapital va inklyuziv iqtisodiy rivojlanish oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni ta'minlovchi ijtimoiy institut sifatida tahlil qilindi. Shu orqali tadqiqotda iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ijtimoiy adolat, institutsional ishonch va barqaror rivojlanish omillarining ham oʻzaro ta'siri konseptual jihatdan asoslab berildi.

Natijada qoʻllanilgan metodologiya ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning iqtisodiy, ijtimoiy va falsafiy determinantlarini kompleks baholash, shuningdek, uning Yangi Oʻzbekiston sharoitidagi inklyuziv taraqqiyotga qoʻshayotgan hissasini ilmiy asosda izohlash imkonini berdi.

Bu esa tadqiqot natijalarining nazariy ishonchliligini va amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari ayollar tadbirkorligi zamonaviy jamiyatda nafaqat iqtisodiy faollikning alohida shakli, balki inklyuziv iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi muhim ijtimoiy institut ekanligini ko'rsatdi. O'rganilgan nazariy manbalar hamda xalqaro tashkilotlar ma'lumotlarining qiyosiy tahlili shuni tasdiqlaydiki, ayollarning tadbirkorlik faoliyatidagi ishtiroki iqtisodiy o'sishni jadallashtirish bilan bir qatorda bandlikni kengaytirish, kambag'allikni kamaytirish, inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy tenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tahlillar natijasida ayollar tadbirkorligining inklyuziv iqtisodiy rivojlanishga ta'siri quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'lishi aniqlandi(1-jadval).

1-jadval



Jadvaldan ko'rinadiki, ayollar tadbirkorligi iqtisodiy o'sishning alohida omili emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional rivojlanishni o'zaro bog'lovchi kompleks tizim hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, gender tengligini ta'minlash ayollar tadbirkorligi rivojlanishining muhim institutsional omili hisoblanadi. Ayollar tadbirkorlik faoliyatining kengayishi esa inson kapitalining rivojlanishiga xizmat qiladi. O'z navbatida, inson kapitalining yuksalishi jamiyatda ijtimoiy kapitalning mustahkamlanishiga, ya'ni ishonch, hamkorlik va fuqarolik faolligining ortishiga olib keladi. Mazkur jarayonlar o'zaro uyg'unlashgan holda inklyuziv iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi hamda pirovard natijada iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional barqarorlikka asoslangan barqaror taraqqiyotga erishish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Mazkur model iqtisodiy rivojlanishning samaradorligi nafaqat moliyaviy resurslar, balki inson salohiyati, ijtimoiy ishonch va teng imkoniyatlar tizimiga ham bog'liqligini ko'rsatadi.

Muhokama. Olingan natijalar zamonaviy ijtimoiy-falsafiy nazariyalar bilan uyg'unlik kasb etadi. Xususan, A. Senning "Imkoniyatlar yondashuvi" iqtisodiy rivojlanishni inson erkinliklari va imkoniyatlarining kengayishi bilan bog'laydi [3]. Tadqiqot natijalari ham ayollar tadbirkorligini aynan iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytiruvchi va inson salohiyatini ro'yobga chiqaruvchi omil sifatida tasdiqlaydi.

M. Nussbaum inson salohiyatini rivojlantirishni adolatli jamiyatning muhim mezonini deb hisoblaydi [4]. Mazkur tadqiqot natijalari ayollar tadbirkorligini rivojlantirish iqtisodiy mustaqillik bilan bir qatorda ijtimoiy adolat va gender tengligini ta'minlashga ham xizmat qilishini ko'rsatdi.

Shuningdek, A. Giddensning refleksiv modernizatsiya nazariyasida iqtisodiy faoliyat shaxs identifikatsiyasining muhim elementi sifatida talqin qilinadi [5]. Olingan natijalar ayollar tadbirkorligi shaxsning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashi bilan birga, uning fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyatini ham rivojlantirishini tasdiqlaydi.

M. Castellsning tarmoq jamiyati nazariyasiga ko'ra, raqamli texnologiyalar iqtisodiy imkoniyatlarni demokratlashtiradi [6]. Bugungi kunda elektron tijorat, masofaviy xizmatlar va raqamli platformalar ayollar uchun yangi tadbirkorlik imkoniyatlarini yaratmoqda. Bu esa inklyuziv iqtisodiy rivojlanishning yangi institutsional mexanizmlarini shakllantirmoqda.

Biroq tadqiqot shuni ham ko'rsatdiki, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish faqat moliyaviy yordam bilan cheklanmaydi. Ijtimoiy stereotiplar, gender rollari, moliyaviy savodxonlik darajasi hamda institutsional to'siqlar ayrim hollarda tadbirkorlik tashabbuslarining to'liq ro'yobga chiqishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli davlat siyosatida iqtisodiy qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda ta'lim, huquqiy madaniyat va iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvni kuchaytirish zarur.

Mazkur tadqiqotning muhim ilmiy natijasi shundan iboratki, ayollar tadbirkorligi gender tengligi – inson kapitali – ijtimoiy kapital – iqtisodiy erkinlik – inklyuziv rivojlanish zanjiri orqali tizimli ravishda asoslab berildi. Ushbu yondashuv iqtisodiy va ijtimoiy omillarni yagona ijtimoiy-falsafiy paradigma doirasida izohlash imkonini beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari ayollar tadbirkorligi inklyuziv iqtisodiy rivojlanishning muhim institutsional omillaridan biri ekanligini ko'rsatdi. U iqtisodiy o'sishni jadallashtirish bilan bir qatorda bandlikni oshirish, inson kapitalini rivojlantirish, gender tengligini mustahkamlash va ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan ayollar tadbirkorligi iqtisodiy faoliyatning yangi aksiologik modelini shakllantiradi. Ushbu model iqtisodiy manfaatlarni ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik faolligi va barqaror taraqqiyot tamoyillari bilan uyg'unlashtiradi.

Tadqiqot davomida ayollar tadbirkorligini baholashning konseptual modeli ishlab chiqildi. Mazkur model iqtisodiy rivojlanish samaradorligi inson kapitali, ijtimoiy kapital va gender tengligi bilan bevosita bog'liqligini ilmiy asoslab berdi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

- ayollar tadbirkorligi inklyuziv iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy-falsafiy instituti sifatida konseptual asoslandi;
- iqtisodiy tafakkur, inson kapitali va gender tengligi o'rtasidagi dialektik bog'liqlik tizimlashtirildi;
- ayollar tadbirkorligining iqtisodiy, ijtimoiy va aksiologik funksiyalarining o'zaro aloqasi ilmiy jihatdan izohlandi;
- ayollar tadbirkorligini baholashning ijtimoiy-falsafiy konseptual modeli taklif etildi.

Amaliy tavsiyalar

1. Ayollar tadbirkorligini baholashda iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda ijtimoiy inklyuziya indikatorlarini ham joriy etish.
2. Oliy ta'lim muassasalarida "Inklyuziv iqtisodiyot", "Gender va tadbirkorlik" hamda "Ayollar tadbirkorligi falsafasi" fanlarini rivojlantirish.
3. Raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt bo'yicha ayollar uchun maxsus malaka oshirish dasturlarini kengaytirish.
4. Hududlar kesimida ayollar tadbirkorligining ijtimoiy ta'sirini baholash tizimini ishlab chiqish.

Umuman olganda, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish Yangi O'zbekiston sharoitida inklyuziv iqtisodiy rivojlanishning strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini chuqur tadqiq etish iqtisodiy siyosatning nazariy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni. Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi SQ–297-IV-son Qarori. 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida.
3. Sen A. Development as Freedom. New York: Alfred A. Knopf, 1999. – 366 p.
4. Nussbaum M. Creating Capabilities: The Human Development Approach. Cambridge, MA: Harvard University Press, 2011. – 237 p.
5. Giddens A. The Consequences of Modernity. Stanford: Stanford University Press, 1990. – 186 p.
6. Castells M. The Rise of the Network Society. 2nd ed. Oxford: Wiley-Blackwell, 2010. – 597 p.
7. World Bank. Women, Business and the Law 2024. Washington, DC: World Bank, 2024.
8. OECD. The Missing Entrepreneurs 2023: Policies for Inclusive Entrepreneurship and Self-Employment. Paris: OECD Publishing, 2023.
9. UN Women. Progress on the Sustainable Development Goals: The Gender Snapshot 2024. New York: UN Women, 2024.
10. UNDP. Human Development Report 2023/2024. New York: United Nations Development Programme, 2024.
11. ILO. World Employment and Social Outlook: Trends 2024. Geneva: International Labour Organization, 2024.
12. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. London: W. Strahan & T. Cadell, 1776.